

VATANNI SEVMOQ – IYMONDANDIR!

Olimjonova Zarnigor

O'zbekiston davlat san'at va Madaniyat institutining Farg'onan
mintaqaviy filiali Qo'g'irchoq teatr aktyorligi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar : Otabek Madaminov

zulfizarshakirjanovna@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada yuksak ma'naviyatimizning yetakchi asosiy tarkibiy qismlaridan bir hisoblanmish vatanparvarlik haqida so'z boradi. Vatanparvarlik tushunchasi yuksak ma'naviyatimizning yetakchi qismlaridan biri bo'lganligi sababli unga turli talqinlarda turlicha yondoshiladi va talqin qilinadi. Menimcha vatanparvarlik deyilganda, insonning o'z kindik qoni to'kilgan ona yurtini qadrlashi undagi har qanday sohalar uchun o'zining kuch va g'ayratini ayamasligi lozimlidigidir. Bergan bu ta'rifimda vatanparvarlikning barcha jahhalari qamrab olinmasa ham birgina vatanni qadrlash so'zining o'ziga keng ma'noda yondoshilsa, bergan bu ta'rifimni albatta to'g'ri tushuniladi.

Kalit so'zlar: Islohotlar, madaniy- ma'rifiy, qadriyat, jamiyat, e'tiqod, ma'naviyat, mafkura, jannatmakon, ijodiy, salohiyat, barkamol, imkoniyat, professional , kadrlar, umummilliy, iqtidorli, iste'dodli, mukofotlar, bunyod etish, ta'lim maskanlari, jahhalar, dunyoqarash, hayotiy pozitsiya, vatanparvarlik e'tiqod.

Kirish

Biz iqtisodiy islohotlarning yangi davriga qadam qo'yar ekanmmiz, madaniy – ma'rifiy sohadagi ishlarimiz, ma'naviyatimizni rivojlantirish vazifalarini ham belgilab olishimiz kerak.

Zero, milliy istiqlol mafkurasining, ma'naviy -ma'rifiy qadriyatlarning jamiyat va xalq hayotida tutgan o'rni beqiyos ekanini hammamiz yaxshi bilamiz. Xalqimiz azaldan o'z ma'naviy qadriyatlari va diniy e'tiqodini yuksak qadrlab kelgan. Shuning uchun eng mushkul damlarda ham o'zligini yo'qotmadi.

Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil

tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy- ma'naviy salohiyat- ma'rifatli insonning ikki qanotidir.

Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiyb rivojlanishning ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini istaymiz. Siyosatimizni shunga quramiz va uni tatbiq etamiz. Odamlarimiz Omilkor, salohiyatli, oqibatli, halol va ijtimoiy jabhalarda sobit turadigan bo'lsinlar.

I. A. Karimov

O'zbekistondanday jannatmakon ona diyorimizda yoshlarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash hamda yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun ularni har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetishlariga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni juda ko'plab yaratilgan. Uzoqni ko'zlagan holda qabul qilingan malakali va professional kadrlar tayyorlash, maktab ta'limini tizimini yanada rivojlantirish umummilliy dasturlari, yoshlarga avlodga oid davlat siyosati, har tomonlama iqtidorli, iste'dodli o'g'il-qizlarimiz uchun turli hil yo'nalishlar bo'yicha ta'sis etilgan davlat mukofotlari, bunyod etilgan ko'plab ta'lim maskanlari, bolalar sportini yanada takomillashtirish hamda rivojlantirish borasidagi ishlar, bularning hammasi barkamol avlodni demakki, ertangi kunimizning munosib davomchilari hisoblanmish iqtidorli va iste'dodli, har sohada izlanuvchan yurtimiz kelajagi shu bilan bir qatorda jonkuyarlarini tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar sirasiga kirishi barchamizga ma'lumdir. Quvonarlisi shuki, yuqoridaq ezgu g'oya va maqsadlarni amalga oshirish – yoshlarni ona Vatanga sadoqat va mehr-muhabbat ruhida tarbiyalanishlarida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va ehtirom bilan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, har tomonlama iqtidorli va iste'dodli o'g'il-qizlarimizning orzu- istaklarini ro'yobga chiqarish yo'lidagi intilishlarini bugun barcha jabhalarda hamda har bir sohada ko'rishimiz mumkin.

Aslini olganda, yoshlarimizning mustaqil dunyoqarashlari va faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishlari uchun har birimiz mas'ulmiz desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ulardagi ma'naviy va axloqiy fazilatlarni yanada yuksak darajaga olib chiqib tarbiyalash, vatanparvarlik va mamlakat taqdiri uchun mas'uliyat hissi bilan yashashlarini ong-u tafakkurlariga singdirish, yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash va tuyg'usini yanada kuchaytirishga, o'g'il-qizlarimizni har tomonlama bilimdon bo'lib voyaga yetishlarini tashkil qilishga muvaffaq bo'la

olsakkina marra bizniki bo'ladi. Vatanimizning salohiyati qanchalik yuksakligi, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari nechog'li ulkan ekanligini, yurtimizning qadimiy va boy tarixini, ulug' ajdodlarimiz hayot yo'li va ular qoldirgan madaniy merozi haqida shu bilan birga ajdodlarimizning bashariyat madaniyati hamda rivojiga qo'shgan ulkan hissasi haqida yoshlarimizning ongiga singdirib borishimiz zarur. Biz o'zbek xalqining dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligini, farzandlarimizning bizdan ko'ra yanada kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashlari uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, biz bu borada ma'naviy tarbiya masalasiga hech shubhasiz kata e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Agar biz bu yo'lda o'z hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimiz hissini yo'qotsak, bunday o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlanib kelayotgan ma'naviyatimizdan, tarixi boy xotiramizdan ayribil, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkinligini , alohida O'zbekiston respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zlarining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarlarida alohida ta'kidlab o'tganlar. Demak, tariximizga nazar soladigan bo'lsak, bundan 800 yil muqaddam Jaloliddindek pahlavon o'g'ilni dunyoga keltirishga musharraf bo'lgan Oychechak ona farzandlarining qoniga o'z ko'krak suti bilan birga yurtining nafasini, mehr-muhabbatini hamda shu bilan birga ozodlikka bo'lgan buyuk sog'inchini ham singdira oldi. Oychechak ona o'z allalari bilan o'g'il-qizlarini Vatanga fidokorlik, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalay oldi. Jaloliddinning umri fojiaviy tugallangan bo'lsada, uning bunday o'limi tarix sahifalarida jasoratning mislsiz timsoli sifatida muhrlanib qoldi. Jaloliddin forslardan bo'lgan Isfandiyorga Xazar o'lkasida asirga tushgan singlisini qutqarish uchun borib ming afsuski o'zi ham asirga tushdi. Asirga aylanfgan Jaloliddindan zindonda "Nima xohlaysan?" deb so'rashganda, U "Vatanimning bir siqim tuprog'i va bir qultum suvi", dedi deb javob beradi. Albatta , har bir inson qalbida kindik qoni to'kilgan joyiga nisbatan mehr va muhabbat bo'lishi darkor. Shunday ekan bir faylasufdan so'radilar: "Yashash qiyin bo'lgan bu cho'lu biyobonga qanday sabr qilasizlar?" U esa javob berdi: "Agarda insonning tug'ilgan joyiga bo'lgan mehr muhabbat bo'limganida edi farovon shaharlarga odamlar sig'mas edi".



Jonajon Ona diyorimiz hisoblanmish O‘zbekistonimizning shonli tarixiga boy sahifalarini varaqlaydigan, ajdodlarimizning nechog‘lik vatanparvarliklariga yana bir bor guvoh bo‘lamiz. Ulug‘ tariqat peshvosi sanalmish Najmiddin Kubro yurtimizning tarixida misli ko‘rilmagan buyuk vatanparvarlik namunasini ko‘rsatdi. U Vatan mehr va muhabbatil ila bo‘lgan istaklaridan boshqa har qanday istaklarga quloq solmadi. Vatanparvar farzandlarning jasorati albatta abadiydir. Ularning osoyishtalik, umuman olganda har tomonlama mukammal rivojlanishlariga ham biz birday ma‘sul shaxsb hisoblanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1 Abduqaxxor Ibroximov Xayriddin Sultonov Vatan tuyg‘usi Toshkent -1996 Narzulla Jo‘rayev
- 2 Mirziyoyev SH. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O‘zbekiston 2017.